

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (dastlabki ma'lumot)


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 15,4 trln.so'mni, o'sish 9,5%ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati -108,2 %
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - 19,1%
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 17,8 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyati korxonalaridan tomonidan 15,4 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 10,8 % ga , tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 1,0 % ga ,elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 11,5 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning – 33,2 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2058,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,3 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11774,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 76,4 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1522,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,9% ni) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1541,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 8,2 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 19,1 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 42,8 % dan 2018 yilning yanvar-mart oylarida 43,3 % ga kamayishi kuzatilmoqda.

Yanvar –iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2017 yil



2018 yil




■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 30,8 % ulushini), Bekobod shahar (18,9 %), Chirchiq (9,1 %) Zangiota (7,6 %) va Qibray (5,4%) tumanlari va Angren (5,6 %) shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Piskent (0,4 %), Bo'ka, Bekobod, Ohongaron (0,5%), Parkent va Quyichirchiq (0,6 %), Oqqo'rg'on (0,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Bekobod shahrida (2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 131,0 % ga), Chirchiq (130,8 % ga), Angren (123,3 % ga) shaharlarida, Yangiyo'l (127,2 % ga), Zangiota tumanlarida (112,5 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 17,8 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yuqorichirchiq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (79,7 %), Parkent(71,8 %), Oqqo'rg'on(65,1 %), Bekobod (58,4 %), Toshkent (57,7 %), Bo'ka (55,4 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Bekobod (1,6 %), Olmaliq (3,0 %), Ohongaron (5,1 %) shahrida kuzatildi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da

